



BALOG‘AT ILMIDAGI “MAJAZ” JANRINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Askarov Abdurashid Murodjonovich

O‘zbekiston xalqoro islom akademiyasi

Arab tili va adabiyoti al-Azhar kafedrası

o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha

falsafa doktori (PhD)

Ushbu maqolada arab tilining balog‘at fani, uning tarkibidagi ilmu-l-bayon, ilmu-l-ma‘oniy va ilmu-l-badi‘ haqida, ushbu san‘atlarning yuzaga kelish tarixi, hamda, ushbu ilmlarni ajdodlardan qolgan og‘zaki va yozma ma‘naviy merosni o‘rganishdagi ahamiyati, tashbeh janri haqida bayon qilindi.

Эта статья исследует “илм ал-баляга” и его содержания: илм ал-баян, илм алмааний и илм ал-бадиъ, историю возникновения этих наук, а также их роль в изучение устного и письменного наследия предков и ученых, также описан жанр Мажаз.

This article explores the science of balaghah, comprehension of its contents: ilm al-maani, ilm al-bayan, ilm al-badi, the history of the occurrence of these sciences, and its role on studying the oral and written heritage of ancestors, scholars and the genre of Majaz is also described.

Tayanch so‘zlar: *arab tili balog‘at fani, balog‘at faniga oid asarlar, ilm ul ma‘oniy, ilm ul bayon, ilm ul badi‘, Majoz janri.*

Ключевые слова: *илм ал-баляга, илм ал-маани, илм ал-баян, илм ал-бади, Мажаз.*



Key words: *science of balaghah, books, comprehension of its contents: ilm al-maani, ilm al-bayan, ilm al-badi, genre Majaz.*

Taftazoniy Zamaxshariyning balog‘atga oid qarashlarini bayon qilishda faqat uning balog‘at ilmi borasida fikr birdirgan uning “أساس البلاغة” cheklanib qolmay Qur‘on tafsiriga bag‘ishlangan “الكشاف” asari bilan ham tanishib chiqqan.

“الكشاف” tafsir asar hisoblansada, Taftazoniy fikriga ko‘ra Zamaxshariy ushbu asarni balog‘at ilmini amaliy jihatdan tadqiq etgan holda yozgan. Muallif asarning ko‘p joylarida balog‘atning qoida va usullarini amaliy yoritib bergan. Zamaxshariyning “الكشاف” asarida uning balog‘atga oid fikrlari tarqoq holda berilgan.

Taftazoniy Zamaxshariyning asarlaridagi boshqalar nazaridan chetda qolgan balog‘atga oid bahsli jihatlarga ham to‘xtalib o‘tgan. U Zamaxshariyning balog‘at ilmiga oid qarashlaridagi bahsli jihatlarga e‘tibor qaratgan. Ulardan biri Zamaxshariyning (الاختلاف بين القاعدة والتطبيق) qoida va uni amaliy tatbiq etishdagi qarama-qarshilik holati bo‘lib, Taftazoniy bunga aniqlik kiritgan.

Zamaxshariy balog‘at ilmiga oid qoidalarni asarlarida keltirgan va balog‘at ilmiga oid istilohlarga ham ta‘riflar bergan. Lekin, mazkur qoidalar yoki ta‘riflarni amaliy tatbiq etilishi kengayib ketganligi, ushbu qoidalarga tegishli bo‘lgan misollar bilan birga aloqador bo‘lmagan misollarni ham keltirib o‘tilgan.

a) (تقديم المسند إليه على المسند) eganing kesimdan oldin kelishi;

Taftazoniy eganing kesiman oldin keltirish qoidasi qanday amalga oshirilishi haqida Zamaxshariyning aytgan gapini keltiradi:

مُقَدَّمٌ وَمُؤَخَّرٌ لِلْمَزَالِ لَا لِلْقَارِّ فِي مَكَانِهِ

«(biror gap bo‘lagini boshqa bo‘laklardan) oldin keltirish va keyin keltirish o‘z o‘rnida muqarrar turadigan (bo‘lak) uchun emas, balki, yo‘q bo‘ladigan (bo‘lak) uchun bo‘ladi».



Taftazoniy Zamaxshariyning mazkur qoidasi va uning tatbiq etilishiga munosabat bildirish uchun Jurjoniyning gap bo‘lagini oldin keltirish ikki xil bo‘lishi haqidagi quyidagi uslubini keltirib o‘tgan:

التَّقْدِيمُ ضَرْبَانِ: يُقَدِّمُ عَلَى نِيَّةِ التَّأْخِيرِ، كَتَّقْدِيمِ الْخَبَرِ عَلَى الْمُبْتَدَأِ، وَالْمَفْعُولِ عَلَى الْفِعْلِ، وَنَحْوَ ذَلِكَ، مِمَّا يَبْقَى لَهُ اسْمُهُ وَرَسْمُهُ الَّذِي كَانَ قَبْلَ التَّقْدِيمِ؛ وَتُقَدِّمُ لَا عَلَى نِيَّةِ التَّأْخِيرِ، كَتَّقْدِيمِ الْمُبْتَدَأِ عَلَى الْخَبَرِ، وَالْفِعْلِ عَلَى الْفَاعِلِ، فَتَجْعَلُهُ مُبْتَدَأً نَحْوُ: (زَيْدٌ قَامَ)، وَتُوَخَّرُ تَارَةً فَتَجْعَلُهُ فَاعِلًا نَحْوُ: (قَامَ زَيْدٌ)، وَتُقَدِّمُ الْمُسْنَدَ إِلَيْهِ مِنَ الضَّرْبِ الثَّانِي

«Gap bo‘lagini oldin keltirish ikki xil bo‘ladi. Birinchisi: biror gap bo‘lagini keyin qo‘yish niyyatida oldin keltirish uchun. Masalan: kesimni egadan, to‘ldiruvchini fe‘ldan oldin keltirish va hokazo. Ya‘ni, oldinda kelayotgan gap bo‘lagi oldindaga o‘tkazilishidan avval qaysi nom va ko‘rinishda bo‘lsa, shu holicha qoladi. Ikkinchisi: biror gap bo‘lagini qasddan oldin keltirish, masalan eganing kesimdan oldin kelishi; mazkur holatda uni muftado- ot kesimli gapning egas deb hisoblaysiz, misol: زَيْدٌ قَامَ [zaydun qooma - Zayd o‘rnidan turdi].

Shuningdek, fe‘lni shu ish-xarakatni bajaruvchisidan oldin kelishi; Mazkur holatda siz uni ish-harakatning bajaruvchisi (فاعل) fe‘l kesimli gapning egasi bo‘ladi. Masalan: قَامَ زَيْدٌ [qoma zaydun]. eganing kesiman oldin keltirish mazkur qoidaning ikkinchi qismidan hisoblanadi. Lekin, Zamaxshariy uni birinchi qismga kiritgan.

Shundan so‘ng, Taftazoniy Zamaxshariy keltirgan eganing kesimdan oldin keltirish qoidasi Jurjoniyning uslubiga ko‘ra taqdimning qaysi turiga mansub bo‘lishi haqida fikrini bildirib, quyidagi gapni keltiradi:

وَمُرَادُ صَاحِبِ الْكَشَافِ ثَمَّةٌ هُوَ الضَّرْبُ الْأَوَّلُ، وَكَلَامُهُ مَشْحُونٌ بِإِطْلَاقِ التَّقْدِيمِ عَلَى الضَّرْبِ الثَّانِي

Kaššāfda Zamaxshariyning maqsadi birinchi qismdan hisoblanadi. Lekin, uning gaplari gap bo‘lagini oldin keltirish qoidasining ikkinchi qismiga mos keladigan misollar bilan to‘la¹».

Taftazoniy uning gapining chigal tomonini ochib berib, bu haqidagi fikrini bildirgan: “Zamaxshariy zikr qilgan qoidasi bilan taqdimning birinchi qismni

¹سعد الدين التفتازاني. المطول على التلخيص. - مصر: سنده، 2015. - ص. 106. / الزمخشري. الكشاف. ص. 632. ج. 1.



maqsad qilgan bo‘lib, u gap bo‘lagini oldin keltirish qoidasining barchasi uchun umumiy shaklda aytimagan”.

Taftazoniy Zamaxshariyning gap bo‘lagini oldin keltirish qoidasi haqidagi gapini chuqur tahlil qilganidan keyin “Kaššāf”da kelgan fikrlarga asoslanib ikkinchi qismga oid misollarning juda ko‘p takrorlangani aytib o‘tgan.

b) Zamaxshariy aqliy majoz haqidagi fikrlariga munosabati:

Zamaxshariy aqliy majozga Baqara surasining ﴿فَمَا رَبَّحَتْ تِجَارَتُهُمْ﴾ oyatini tafsir qilish asnosida quyidagi ta’rif bergan:

وهو أن يسند الفعل إلى شيء يتلبس بالذي هو في الحقيقة له كما تلبست التجارة بالمشتريين

“Fe’l haqiqatda o‘ziga aloqasi bo‘lgan narsaga bog‘lanishidir. Bunga oyatdagi tijorat so‘zi xaridorlarga bog‘lanib kelishi misol bo‘ladi”.

Taftazoniy Zamaxshariyning aqliy majoz haqidagi ushbu ta’rifini keltirib, “Kaššāf”da aqliy majozga keltirgan misollariga munosabat bildiradi. Zamaxshariy o‘zi bergan ta’rifiga mos kelmaydigan misollarni ham aqliy majoz tushunchasini aytib o‘tgan. Lekin, u ta’rif berganda fe’l bilan bog‘lanadi degan qayd bilan cheklab qo‘ygan.

Masalan:

Zamaxshariy “Kaššāf”da Saba’ surasidagi oyatidagi qaratqichli so‘z birikma ﴿مَكْرُ اللَّيْلِ وَالنَّهَارِ﴾ ni aqliy majozga misol sifatida keltirgan.

Taftazoniy aqliy majozga Zamaxshariy tomonidan keltirilgan وهو أن يسند الفعل إلى شيء يتلبس بالذي هو في الحقيقة له (*“Fe’l haqiqatda o‘ziga aloqasi bo‘lgan narsaga bog‘lanishidir*) degan ta’rifini keltirib, u nazariy ta’rif ekanligini, uning “Kaššāf”da aqliy majozga keltirilgan misollarni qamrab olish imkoni yo‘qligini ta’kdlagan. Taftazoniyga qadar bu jihat haqida balog‘at olimlari asarlarida ma’lumot keltirishmagan. Qazviniy aqliy majozga Zamaxshariy bergan ta’rifni mazkur



jihatlariga e'tibor bermasdan o'zining "Talḥīṣ-u-l-miftah" va "Izoh fi ulumi-l-balag'a"² asarlarida keltirgan.

v) Istiora deb nomlanadigan majoz haqidagi qarashlari borasida:

Zamaxshariy balog'atga oid bir istilohni ma'lum masalaga qo'llagandan so'ng aynan shu istilohni boshqa o'rinda boshqa masalaga qo'llagani ma'lum bo'ladi.

Zamaxshariy aqliy majoz haqida yana :

وقد يسند إلى الأشياء على طريق المجاز المسمى استعارة³ ...

Istiora deb ataladigan majoz yo'li orqali boshqa narsalarga bog'lanishi ham mumkin...

Zamaxshariyning mazkur gapidan aqliy majoz istioraga mos bo'lishi mumkinligi kelib chiqadi.

Sakkokiy aqliy majoz haqida shunday degan:

المجاز العقلي في سلك الاستعارة بالكنية⁴

Aqliy majoz kinoya orqali ifodalanadigan istiora yo'lidadir

Taftazoniy aqliy majoz haqidagi Zamaxshariy va Sakkokiyning gaplarini keltirgandan so'ng shunday degan:

وكلام الكشاف يكاد يميل إلى مثل هذا ... لكن مراده تشبيه هذه الحالة بحالة الاستعارة الاصطلاحية لا

أن يكون ههنا استعارة في شيء من طرفي الإسناد⁵

aqliy majoz haqidagi "Kaššāf" da kelgan gap deyarli unga moyil bo'ladi. Lekin, Zamaxshariyning bu joydagi maqsadi ikki tomonning bir jihatdan bog'lanishidagi istiora emas, balki ushbu holatni istilohiy ma'nodagi istioraga o'xshatish hisoblanadi.

Taftazoniy bu fikrini dalillash va qo'llash uchun balog'at olimlaridan Jurjoniyni quyidagi gapini keltiradi:

²الإيضاح في علوم البلاغة. القزويني. ص 98. دار الكتب العلمية. 2003. لبنان
³الكشاف. الزمخشري. ج 1. ص. 161. دار الكتاب العربي. بيروت. 1986.
⁴مفتاح العلوم. السكاكي. ص 284. دار الهلال. بيروت. 1993.
⁵شرح المفتاح. التفتازاني. ص. 212. دار التقوى. دمشق. 2022.



بأن تشبيه الفاعل المجازي بالحقيقي ليس هو التشبيه الذي يصلح مبنى للاستعارة⁶

Majoziy ma'nodagi ish-harakatning bajaruvchisi-egani haqiqiy ma'nodagi ish-harajatning bajaruvchiga o'xshatish istiora uchun asos bo'la oladigan tashbeh hisoblanmaydi.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, Taftazoniy Toyyibiya qaraganda Zamaxshariy hamda Sakkokiyning balog'atga oid fikrlarini tushinishda kuchliroq ekanligi ma'lum bo'ladi. Buni Zamaxshariy "Kaššāf" asarida Naml surasidagi 4-oyati tafsirida keltirgan quyidagi fikri ham qo'llaydi:

وله طريقان في علم البيان: أحدهما أن يكون من المجاز الذي يسمى استعارة والثاني أن يكون من المجاز الحكمي.

Bayon ilmida buning ikki yo'li bor: biri isiora deb ataladigan majozdan, ikkinchisi hukmiy majozdan bo'ladi.

Keltirilgan ikki ta'rifdan ma'lum bo'ladiki, Zamaxshariyning fikriga ko'ra aqliy majoz va istiora ikkita alohida jihat hisoblanadi.

d) Zamaxshariyning balog'atga oid bir masalada bir-biriga zid bo'ladigan ikki xil fikrni keltirishiga Taftazoniyning munosabati:

Zamaxshariy balog'atga doir bir masalada o'z fikrini aytib o'tgandan so'ng boshqa o'rinda ayni shu masalada birinchi fikrga zid keladigan fikrni aytadi.

Istig'roq lomi (لام الاستغراق) qo'shilgan ko'plik sondagi so'z barcha birliklarni o'z ichiga qamrab olish yoki qamrab olmasligi haqidagi masalaga Taftazoniy balog'atga oid asarlarida aytib o'tgan.

Taftazoniyning tutgan yo'li:

Taftazoniy: "So'zni (ال) artikli bilan aniq holatda keltirgan ko'plik ahd va ba'ziyat ma'nolariga dalolat qiladigan asos bo'lmagan paytda alif lomli jam isimdagi alif lom istig'roq va umum uchun bo'ladi.

⁶أسرار البلاغة. الجرجاني. ص. 383. دار المدني. جدة. 1991.



Shu jihatdan istigʻroq lomi barcha afrodlarni ichiga oladi, huddi alif lomli mufrad ism kabi. Chunki har ikkisidan ham qamrovchi jins iroda qilinadiki, jinsning biror boʻlagi uning ichiga kirmay qolmaydi”, degan.

Bu koʻplik eʻtiboridan shunday, ammo qillat – ozlik jihatidan esa jins lomi bilan maʼrifa boʻlgan ism va mufrad, jam oʻrtasidagi farq oydinlashadi. Yaʼni mufrad ism undan jinsning barcha fardini iroda qilish va bir dona qolgunga qadar baʼzisni ham iroda qilishga yaroqlikdir. Jam jinsning barcha afrodini iroda qilishga yaroqli, lekin baʼzisini bir dona qolguncha iroda qilishga yaroqli emas. Chunki uning siygʻasi jinsdagi hamlikni qabul qilish uchundir. Mufradning siygʻasi esa jinslik va koʻplikni qabul qilishda jinsning jumlasiga tegishli boʻladi, birliklariga emas. Xullas, uchdan ozida jamlik yoʻqdir.

Ikkinchisi: fasohati yetuklarning shuni ishlatishlaridir. Buni tadqiq qilinganda olingan natijalar isbotlaydi.

Uchunchisi: alif-lomlik jamdan fardni istisno qilish toʻgʻri ekani. Saʼduddin Taftazoniy aytadi: “Shu qoida sabab *إلا الزيد* او *إلا زيد* او *إلا العلماء* او *إلا القوم* degan jumla sahihdir. Lekin, sizning muttasil istisno sifatida qilib *كل جماعة من العلماء* degan jumlangiz sahih emasdir” .

Saʼduddin Taftazoniy bu gapi bilan alim-lomlik jam ism agar ikki va birni ham ichiga oladigan istigʻroq maʼnosida boʻlmasa bundan ikkisini istisno qilish joiz emasligini aytmoqchi boʻladi.

Toʻrtinchisi: arablar *عبيدي أحرار* desa, barcha qullari ozod boʻlishiga ittifoq qilganlar. Yaʼni alif-lom siz maʼrifa boʻlgan jam ism, shumul – keng qamrashni ifoda qiladi. Bunga alif-lom bilan maʼrifa boʻlgan ham qiyos qilinadi.

Zamaxshariy Kaššāfda yuqorida oʻtgan gapning ziddini keltirgan:

Taftazoniy Zamaxshariy istigʻroqiy alif-lomlik jam barcha afrodini qamarab olishini aytgan oʻrinlarni Kaššāfdan birma bir oʻrganib chiqishlari mobaynida Zamaxshariy bu qoidasiga ikki oʻrinda xilof qilganini payqab qolganlar va



aytadilar: “Kaššāfning muallifi Allohning: “Va farishtalar uning atrofida...” degan oyati tafsirida malak so‘zi ملائكة so‘zidan ko‘ra ko‘proqni ifoda qiladi, degan.

Bu “...farishtalariga, asarlariga...” oyat tafsirida “Ibn Abbos “وكتابه” deb o‘qigan va u kishidan الكتب dan ko‘ra الكتاب ning rivoyati ko‘p kelgan. Buni ulamolar mufradning istig‘roqi jins afrodini qamrash ma’nosidadir, shu bois bir yoki ikki fard uning dalolatidan chiqib qolmaydi. Jamning istig‘roqi degani jinsning jamlikni birliklarida yemas, jumlasida qamrashi deganidir”, deya aytadi.

Bu yondashuvni birinchi oyatda Zamaxshariy aytgan. Lekin Sa‘duddin Taftazoniy shu o‘rinda Zamaxshariyning matndagi “وجهوا” so‘zida: “Zamaxshariyning bu gapni naql qilishi ba’zilar nazdidagi gapga asosandir. Unga ko‘ra alif-lomlik jam har bir jamoaning jamoasi degan ma’nosidadir. Zamaxshariy bu gapni Ibn Abbos gapiga dastak qilib keltirgan. Lekin bu o‘zining mazhabi ekanini maqsad qilmagan. Bunga bir necha o‘rinda bu qoidaga zid gapni takror ochiq aytgani dalolat qiladi. Amalda qo‘llashi ham bunga hujjat bo‘ladi.

Sa‘duddin Taftazoniy mazkur masalada gapni quyidagi iborasi bilan qisqa qilib: “Umuman olganda, jam hukm afrodning har biriga taalluqli ekanini ifoda qiladi. Musbat bo‘lsin yoki manfiy farqi yo‘q. Bunga imomlar qaror berishgan. Amaldagi vaziyat ham bunga shohidlik beradi. Kaššāf sohibi ham bir necha o‘rinda shu gapni ochiq oydin aytgan. Miftāh sohibining gapi bilan bularning barchasini bekor qilishga asos yo‘q” deydi.

Sa‘duddin Taftazoniy Zamaxshariyning bu gapini mazkur vajhda taxrij qilishida diqqat va lutfliylik bor. Lekin agar Tahrim surasidagi oyat Makkada nozil bo‘lganiga taslim bo‘linsada, biroq Zamaxshariy bu o‘rinda yanglish tarafga yurgan.

Balog‘atchilarning Zamaxshariyning ko‘zlagan murodidan boshqayoqqa burishlari:

Sa‘duddin Taftazoniy Zamaxshariyning gapidagi chigallikni keltirib chiqargan iborani chuqur tahlil qilmaganini aytib o‘tadi. Agar Zamaxshariy iroda



qilgan ma'noda tushunganida edi, uning gapini haqiqatidan majozga yo'yib mazhabidan boshqa qarashni unga nisbat bergan bo'lar edi. Sa'duddin Taftazoniy ularning tushunishida voqe bo'lgan xato va uning sababini bayon qilib, Zamaxshariyning gapini tushunishning to'g'ri yo'lini ham aytib o'tgan.

Maqolada Taftazoniyning balog'at ilmi namoyondalari hisoblangan Jurjoniy, Zamaxshariy, Sakkokiy, Qazviniy va boshqa olimlarning balog'at ilmidagi istiora, itnob, muhassanat badi'iyya va muhassanat makniyya haqidagi qarashlariga nisbatan ilmiy munosabatlari o'rin olgan.

Taftazoniy Jurjoniy va Sakkokiyning balog'at ilmiga oid ishlab chiqqan qoidalarini tanqidiy ko'rib chiqqan, to'g'rilagan, kengaytirgan, osonlashtirgan va yangi qoidalar bilan kengaytirgan hamda ularga dalillar keltirgan. Taftazoniy balog'atga oid matnlarni sharh qilish jarayonida ularga tanqidiy uslubda yondashgani sababli mazkur balog'atga oid ilmiy qarashlarga munosabatlar bildirgan.

Taftazoniyning fikriga ko'ra Jurjoniy tomonidan ishlab chiqilgan balog'atga oid ba'zi qoidalar qat'iy hisoblanmaydi. Taftazoniy mazkur qat'iy bo'lmagan balog'at qoidalariga ilmiy munosabat bildirgan va ularni to'ldirgan. Taftazoniy maoniy ilmini nahv ilmi asosida shakllanadi degan ilmiy qarashga ega bo'lgan bo'lib, ushbu ilmiy qarashni Jurjoniy ham bildirgan edi. Lekin, Taftazoniy mazkur ilmiy qarashni tatbiq etish doirasini kengaytirgan.

Taftazoniy ko'p o'rinlarda Sakkokiyning balog'at ilmidagi uslubiga ilmiy munosabat bildirgan. Ayniqsa, uning tashbehning turlari haqidagi qilgan aqliy taqsimotlariga, istidlolni maoniy ilmining bir bo'lagi deb hisoblashiga hamda balog'atga oid bo'lmagan ba'zi narsalarni unga qo'shib yuborganiga e'tibor qaratgan va ularga ilmiy asosda munosabat bildirgan. Bu o'z navbatida, Taftazoniy Sakkokiyning balog'atdagi ilmiy uslubidan ko'ra Jurjoniyning uslubini afzal ko'rganligini ko'rsatadi. Taftazoniy bu haqda Sakkokiy va Jurjoniyning tashbehning turlari haqidagi amalga oshirgan aqliy taqsimotlarini va ularga



keltirgan misollarni qiyoslash jarayonida aytib o'tgani ma'lum bo'ldi. Taftazoniy Sakkokiyning nafaqat balog'atdagi ilmiy uslubiga, balki, uning boshqa nazariy qarashlariga ham e'tiroz bildirgani buni tasdiqlaydi.

Shuningdek, Taftazoniy Qazviniyning balog'atga oid ba'zi qarashlariga, balog'at tarkibi borasida u amalga oshirgan ayrim tasniflarga ilmiy munosabat bildirgan. U Jurjoniyni balog'atga oid tasniflariga qaytish kerakligini ta'kidlagan. Chunki, Jurjoniyni taqsimotlari balog'atning ilmiy va nazariy muammolarini ko'proq qamrab olgani hamda bahs va tortishuvlarga sabab bo'lmasligini aytgan.

Taftazoniy Sakkokiy va Qazviniydan boshqa balog'at bilan shug'ullangan olimlarning qarashlariga ham ilmiy munosabatlar bildirgan. Taftazoniy bu borada Jurjoni va Zamaxshariyning yo'lini tutgani, bundan tashqari, u Ibn Asirning qarashlariga ko'p murojaat qilganligi ma'lum bo'ldi. Taftazoniy Zamaxshariyning ilmiy merosidagi balog'atga oid qarashlarini keng qamrovli o'rgangan va bu borada Zamaxshariyning balog'atga oid qarashlari asarlari ichida tarqoq holda ekanini ma'lum qilgan. Ba'zi olimlar Zamaxshariyning mo'taziliya aqidasi moyilligini uning balog'atga oid qarashlariga ham ta'sir qilgan deb hisoblaydi. Taftazoniy esa Zamaxshariyning fikrlariga munosabat bildirishda ob'ektiv yondashgan. Zamaxshariyning aqidasi uning balog'at borasidagi ilmiy qarashlariga ta'sir qilmagan. Taftazoniyni Zamaxshariyga munosabatlari ba'zi oyatlar ma'nosini tushunishga nisbatan bildirilgan.

Taftazoniy Zamaxshariyning tafsir va hoshiyalarda bildirgan balog'atga oid ba'zi hukmlariga o'zgacha ilmiy munosabat bildirgan o'rinlari ham mavjud. Bularning barchasi Taftazoniyni balog'atga oid asarlarida o'z aksini topgani keltirib o'tildi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. سعد الدين التفتازاني. الشرح المطول لتلخيص المفتاح. – بيروت: دار الكتب العلمية، 2013. – 792 ص.
2. سعد الدين التفتازاني. مختصر المعاني شرح كتاب تلخيص المفتاح. – اسطنبول: دار الشفاء، 2017. – 704 ص.
3. سعد الدين التفتازاني. شرح مفتاح العلوم. – دمشق: دار تقوى الشام، 2020. – 793 ص.
1. ابن تغري بردي. المنهل الصافي والمستوفي بعد الوافي. – ج. 11. – القاهرة: دار كتب، 2005. – 356 ص.
2. ابن حجر العسقلاني. إنباء الغمر بأنباء العمر. – ج. 2. – مصر: المجلس الأعلى للشؤون الإسلامية، 1998. – 582 ص.
3. ابن حجر. إنباء الغمر بأنباء العمر. – ج. 1. – مصر: المجلس الأعلى للشؤون الإسلامية، 1998. – 502 ص.
4. ابن خلدون. تاريخ ابن خلدون. – ليوان، 2008. – ج. 3. – ص. 1101.
5. ابن عيسى بن عبد الله الرماني. النكت في إعجاز القرآن. – مصر: دار المعارف، 1976. – 384 ص.
6. ابن الحاجب. فوائد مختصر الأصول. – ج. 1. – بيروت، 2015. – 475 ص.
7. ابن المثنى البصري. مجاز القرآن \ بتحقيق محمد فؤاد سركين. – القاهرة: الطبعة، 1381 هـ. الجزء الثاني. – 452 ص.
8. ابن بحر الجاحظ. كتاب البيان والتبيين. – مكتبة النور، 2006. – 444 ص.
9. ابن رشيق القيرواني. العمدة في صناعة الشعر ونقده وعيوبه. – القاهرة: المكتبة الخانجي، 2000. – 1509 ص.
10. ابن حجر العسقلاني. إنباء الغمر بأنباء العمر. – ج. 2. – مصر، 1998. – 377 ص.
11. ابن حجر العسقلاني. الدرر الكامنة. – ج. 4. – حيدر آباد: دائرة المعارف العثمانية، 1993. – 505 ص.
12. ابن وهب. البرهان في وجوه البيان. – مصر: مكتبة الشباب، 2017. – 419 ص.
13. أبو الفلاح. شذرات الذهب في أخبار من ذهب. – ج. 8. – بيروت، 1997. – 655 ص.



14. أبو العباس عبد الله ابن المعتز. كتاب البديع \ شرحه وحققه عرفان مطرجي. – بيروت: مؤسسة الكتب الثقافية، 2012. – 110 ص.
15. أبو نصر الفراءى. كتاب في المنطق. الخطابة \ تحقيق وتأليف د. محمد سليم سالم. – مصر: مطبعة دار الكتب، 1976. – 903 ص.
16. أبو يعقوب السكاكي. مفتاح العلوم \ تحقيق د. عبد الحميد الهنداوي؛ علي جارم و مصطفى أمين. البلاغة الواضحة. البيام-المعاني-البديع. – القاهرة، 1999. – 539 ص.
17. احسن عباس. تعريخ النقد الاديب عند العرب. بيروت: دار العلمية، 1984. – ص. 28.
- 18.
19. Muqaddima. Ibn Xaldun al-Hadramiy. 3-jild. – Bayrut, 1957.
20. Ad-duraru-l-kamina fi a’yani-l-miati-s-samina. Ahmad ibn Ali ibn Muhammad ibn Hajar al-Asqaloniyy. 5-jild. – Haydarobod, 1983.
21. Kashfu-z-zunuz an asamili kutub va-l-funun. Mustafo ibn Abdulloh Hoji Xalifa. 1-jild. – Damashq, 1994.
22. Rustamiy S. O’rta asrlar balog‘at ilmida tilshunoslikka oid qarashlar. – Toshkent, 2019. – 239 b.
23. Mullasadikova N. «Qur’onda ma’oniy ilmining lingvopoetik asoslari». – Toshkent, 2020. – 52 b.